

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
SAVDO
BIZNES
TARAQIYOT
INNOVATSIYA
WATUJ
BRANDING

№7 – SON

2025-YIL, IYUL

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



zenodo

ORCID

OPEN ACCESS



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 31 IYUL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabel Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekanini professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 372 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ СРЕДСТВ.....	6
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
KOMPANIYALAR EKOMARKETING STRATEGIYASIDA “YASHIL” BRENDING TENDENSIYALARI.....	13
Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o‘g‘li	
МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ	21
Ренкер Клеменс, Багиев Георгий Леонидович, Икрамов Мурат Акрамович	
XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI.....	29
Ibragimov Jaxongir Baxodirovich	
O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	36
Astanov Sherzod Rustamovich	
HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHİYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOİY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI	45
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
QURITILGAN MEVALAR EKSPORTIDA MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	56
Yunusov Baxodir Marisovich	
KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK MARKETING YONDSHAUVLARI.....	64
Xidirov Sherzod Olimovich	
BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI	70
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI	78
Oripov Ilhom Abdullayevich	
NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	90
Inamov Farhodjon Ikrom o‘g‘li	
“YASHIL” SANOAT SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	97
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	108
Jalilov Azizbek Baxodir o‘g‘li	
MINTAQAVIY IJTIMOİY-IQTISODIY TIZIMDA SAMARADORLIK VA SIFATNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI	117
Jumanov Sherzod Norboyevich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASHDA SUNIY INTELLEKT VOSITALARI VA ULARDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH.....	126
Maxmudov Faxriddin Umarovich	

ELEKTRON TIJORATDA TESKARI LOGISTIKANING INNOVATSION MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI.....	134
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li	
MINTAQADA QURILISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	150
Jumanov Sherzod Norboyevich	
FROM PARTNERSHIP TO STRATEGIC ALLIANCE: MAPPING FUTURE COLLABORATION BETWEEN INDIA AND UZBEKISTAN	159
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	167
Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
ZIYORAT TURIZMI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Salomov Temurbek Boburmirzo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON AGROSANOAT ZANJIRLARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARINI JORIY ETISHGA TASHQI MUHIT OMILLARI TA‘SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	180
Djumayev Asror Almamatovich	
TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI	190
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna	
SOG‘LIQNI SAQLASH TA‘LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	198
Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS SERVICES IN FREE ECONOMIC ZONES. STRATEGIC CONCEPT ON THE EXAMPLE OF JIZZAK FEZ	204
Mukhiddinov Muminjon Shavkiddin ugli	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING TIBBIYOT OLIY TA‘LIM MUASSASASALARI TA‘LIM SIFATIGA TA‘SIRI.....	213
Nazarova Fotima Xakimovna, Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
MAKROIQTISODIYOTDA ISTE‘MOL TALABI NAZARIYASI VA UNING MARKETING TADQIQOTLARIDA QO‘LLANILISHI.....	219
Rustamov Narzillo Istamovich	
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIYAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI	227
Sadibaqosov Suxrob Toshpo‘lot o‘g‘li	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA‘SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	235
Sapayeva Fazilat Norbayevna	
MODALAR BIZNESIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi, Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	248
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi	
СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	257
Матлюбов Хуршид Жамшидович	

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	266
Самединов Тимур	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABA FIKRLARINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH	279
Akbarov Nodir Gafurovich	
BANK XIZMATLARI MARKETINGIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	287
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV METODOLOGIYASI.....	295
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH	304
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	311
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILIY MEXANIZMI	315
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	322
Gozieva Mokhira Rustamovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH	330
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	335
Kucharov Abror Sabirjanovich, Alijanova Komila Toxir kizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BYUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANGAN HOLDA BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	344
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETINGDA SUN'IY INTELLEKT	352
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASI AHAMIYATI.....	358
Akramov Tohir Abdirahmonovich	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI.....	364
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIVAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI

Sadibaqosov Suxrob Toshpo‘lot o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi

Menejment tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bosh mutaxassisi

E-mail: sadibaqosovsuhrob55@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida fermer xo‘jaliklari moliyaviy savodxonlik darajasining moliyaviy tahdidlarni boshqarish salohiyatiga ta’siri empirik tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun logistik regressiya (binary logit) modeli qo‘llanilib, fermerlarning tahdidlarga bardoshlilik ehtimolini aniqlovchi asosiy omillar — moliyaviy bilim, ta’lim darajasi, tajriba, kreditga kirish imkoniyati va maslahat xizmatlaridan foydalanish — baholanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik fermerlarning moliyaviy risklarni aniqlash va boshqarish qobiliyatiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, oliy ma’lumot va kredit resurslaridan samarali foydalanish ham barqarorlikni oshiradi. Tadqiqot asosida moliyaviy ta’lim dasturlarini kengaytirish, agroxizmat infratuzilmasini rivojlantirish hamda fermerlar uchun raqamli maslahat platformalarini yaratish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, fermer xo‘jaliklari, iqtisodiy barqarorlik, logistik regressiya, ehtimoliy tahlil, kredit resurslari, maslahat xizmati, agrar sektor, ta’lim darajasi, investitsion qaror, raqamli xizmatlar, moliyaviy risk, siyosiy takliflar, AKT infratuzilmasi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.

Abstract

This article empirically analyzes the impact of financial literacy levels on the capacity of farms in Uzbekistan to manage financial threats. A binary logistic regression model was applied to assess the key factors determining farmers’ resilience to risks — financial knowledge, education level, experience, access to credit, and use of advisory services. The results indicate that financial literacy has a significantly positive effect on farmers’ ability to identify and manage financial risks. In addition, higher education and effective use of credit resources also enhance resilience. Based on the findings, recommendations are proposed to expand financial education programs, develop agro-service infrastructure, and create digital advisory platforms for farmers.

Keywords: financial literacy, farms, economic stability, logistic regression, probability analysis, credit resources, advisory services, agricultural sector, education level, investment decision, digital services, financial risk, policy recommendations, ICT infrastructure, Uzbekistan agriculture.

Аннотация

В данной статье эмпирически анализируется влияние уровня финансовой грамотности фермерских хозяйств в условиях Узбекистана на их способность управлять финансовыми угрозами. Для исследования применена модель

бинарной логистической регрессии, с помощью которой оценены ключевые факторы, определяющие устойчивость фермеров к рискам — финансовые знания, уровень образования, опыт, доступ к кредитам и использование консультационных услуг. Результаты показывают, что финансовая грамотность оказывает значительное положительное влияние на способность фермеров выявлять и управлять финансовыми рисками. Кроме того, наличие высшего образования и эффективное использование кредитных ресурсов также повышают устойчивость. На основе исследования разработаны рекомендации по расширению программ финансового образования, развитию агросервисной инфраструктуры и созданию цифровых консультационных платформ для фермеров.

Ключевые слова: финансовая грамотность, фермерские хозяйства, экономическая устойчивость, логистическая регрессия, вероятностный анализ, кредитные ресурсы, консультационные услуги, аграрный сектор, уровень образования, инвестиционное решение, цифровые услуги, финансовый риск, политические предложения, ИКТ-инфраструктура, сельское хозяйство Узбекистана.

KIRISH

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi sharoitida moliyaviy barqarorlikka erishish nafaqat ishlab chiqarish vositalari va bozor infratuzilmasi mavjudligiga, balki fermerlarning moliyaviy bilim va ko‘nikmalariga ham bevosita bog‘liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta fermerlar uchun moliyaviy savodxonlik darajasi — ya‘ni budjet tuzish, kredit olish, investitsiyani baholash, risklarni aniqlash va boshqarish qobiliyatlari — ularning iqtisodiy qarorlar samaradorligini belgilaydi. Xususan, O‘rta Osiyo va Afrikadagi tadqiqotlar fermerlarning moliyaviy savodsizligi ularni qimmatli imkoniyatlardan mahrum etishini hamda moliyaviy xatarlarga nisbatan zaifligini oshirishini ko‘rsatgan. O‘zbekiston misolida esa, qishloq xo‘jaligi sektori jadal o‘zgarayotgan moliyaviy muhitda faoliyat yuritayotgan fermerlardan zamonaviy moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Shu sababli, moliyaviy tahdidlarni boshqarishda bilimlar darajasini oshirish — kredit resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘urta vositalarini joriy etish va investitsion barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqola aynan ana shu yo‘nalishda — O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida moliyaviy tahdidlarni bartaraf etishda bilim va savodxonlik darajasining o‘rnini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilish va uni moliyaviy barqarorlik asosida rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni¹ doirasida fermer xo‘jaliklarining moliyaviy savodxonligini oshirish, kredit resurslaridan oqilona

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/docs/-4567334>

foydalanish, investitsion xavflarni kamaytirish va raqamli texnologiyalar orqali fermer faoliyatini qulaylashtirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan. Xususan, hujjatda kichik xoʻjaliklar darajasida iqtisodiy barqarorlikni oshirish, davlat moliyaviy institutlari va xususiy sektor ishtirokida moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, sugʻurta va kafillik tizimlarini kuchaytirish maqsad qilingan. Strategiya doirasida agrotexnologik xizmatlar, maslahatchilik va axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish, fermerlarning moliyaviy qaror qabul qilish koʻnikmalarini mustahkamlash muhim vosita sifatida koʻrilmoqda. Bu esa moliyaviy tahdidlar qarshisida mustahkam iqtisodiy asos yaratishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligida moliyaviy savodxonlikni oshirish va tahdidlarni oldindan boshqarish milliy siyosat darajasida eʼtirof etilgan dolzarb masalalardan biridir.

Moliyaviy savodxonlikning qishloq xoʻjaligidagi oʻrni tobora ortib borayotgan global va milliy iqtisodiy sharoitlarda fermer xoʻjaliklarining barqaror faoliyat yuritishida muhim omilga aylanmoqda. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, moliyaviy bilimlar darajasi past boʻlgan fermerlar kredit resurslaridan foydalanishda, investitsiya qarorlarini qabul qilishda va moliyaviy risklarni boshqarishda muammolarga duch keladilar. Oʻzbekistonda ham qishloq xoʻjaligi strategik soha hisoblanib, uni modernizatsiya qilishda moliyaviy savodxonlikni oshirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan. “Qishloq xoʻjaligini rivojlantirish strategiyasi – 2030” doirasida fermer xoʻjaliklarini iqtisodiy barqarorlashtirish uchun moliyaviy xizmatlarga keng kirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va taʼlim-targʻibot ishlarini kuchaytirish belgilangan. Ayniqsa, moliyaviy tahdidlarni (kredit toʻlovlari, narx oʻzgaruvchanligi, tabiiy ofatlar) oldindan anglab, ularga qarshi chora koʻrishda bilim darajasining yetarli boʻlishi fermerlar farovonligi va butun tarmoq barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Oʻzbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali qishloq xoʻjaligida tahdidlarni boshqarish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soʻnggi yillarda moliyaviy savodxonlikning qishloq xoʻjaligi sektorida, ayniqsa kichik fermer xoʻjaliklarining barqarorligi va qaror qabul qilish qobiliyatiga taʼsiri dolzarb mavzuga aylangan. A. OʻDonoghue (2016) Yevropa Ittifoqidagi oilaviy fermer xoʻjaliklarining moliyaviy barqarorligini “pluriaktivlik” va CAP siyosati doirasidagi moliyaviy yordamlar orqali tahlil qilib, moliyaviy resurslarni boshqarish qobiliyatining ularning iqtisodiy yashovchanligida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi.

Shunga oʻxshash tahlil Jindrich Spicka va hammualliflar tomonidan olib borilgan boʻlib, ular fermerlarning barqarorligini baholashda ishlatiladigan moliyaviy koʻrsatkichlarning metodologik zaifliklarini aniqlab, MFNVA kabi yangi indikatorlarni taklif qilgan (Spicka et al., 2019). Mikhail Petrick va Martin Kloss (2020) esa investitsion qarorlarni belgilovchi omillarni tahlil qilib, moliyaviy savodxonlik va institutsional ishonch kichik xoʻjaliklar uchun sarmoya oqimini belgilovchi asosiy omillar ekanini taʼkidlaydi. Ular qishloq sektorida raqamli va moliyaviy xizmatlarga kirishni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Dockès va boshqalar (2024) tomonidan murakkab tizimlar nazariyasi asosida qishloq xo‘jaligi tizimlarining moslashuvchan boshqaruvi tahlil qilingan bo‘lib, bu yondashuv moliyaviy tahdidlarni boshqarish uchun ham muhim nazariy asos bo‘la oladi. Ahmad (2024) hamda Akinrinlola va boshqalar (2024) iqlimga moslashtirilgan qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining moliyaviy savodxonlik bilan bevosita bog‘liqligini empirik asosda isbotlab bergan. Ularning tadqiqotlarida hosildorlik, chidamlilik va barqarorlik moliyaviy bilimlar orqali kuchaytirilishi ko‘rsatilgan.

Bravo-Medina va boshqalar (2021) agroekologik yondashuvlar orqali kichik fermerlar daromadlarining barqarorligini oshirishda moliyaviy va ekologik bilimlar uyg‘unligining ahamiyatini ko‘rsatgan. Xuddi shunday, Rehman (2022) tomonidan Pokistonning tog‘li hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotda ham fermerlarning barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar orasida moliyaviy savodxonlik alohida e’tirof etiladi. Bayrau Tafesse va boshqalar (2020) texnik samaradorlikni ta’minlovchi omillar sifatida ta’lim, agronomik maslahat va moliyaviy xizmatlar bilan ishlash tajribasini tahlil qilgan.

Milliy miqyosda esa, Pulatova va Abdulatipova (2024) O‘zbekiston yoshlari orasida moliyaviy savodxonlikni oshirishning makroiqtisodiy ta’sirini o‘rganib, moliyaviy madaniyat va innovatsion qarorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida ham moliyaviy tahdidlarni boshqarish, fermerlar bilim darajasini oshirish va texnologik xizmatlardan foydalanishni kengaytirish ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilangan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda moliyaviy savodxonlik omilining fermerlar tomonidan moliyaviy tahdidlarni boshqarish ehtimoliga ta’sirini empirik baholash maqsadida logistik regressiya (Binary Logistic Regression) modeli qo‘llanildi. Mazkur model bog‘liq o‘zgaruvchining (ya’ni, fermerning moliyaviy tahdidni boshqara olishi yoki boshqara olmasligi — 1/0) ikkilik shakldagi natijasini mustaqil o‘zgaruvchilar bilan bog‘lab, ehtimollik asosida tushuntiradi. Logistik regressiya statistik tasniflash usuli bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda keng qo‘llanadi, xususan ehtimollikka asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Model quyidagi matematik formulaga asoslanadi:

$$P(y = \frac{1}{X}) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_k X_k)}}$$

Bu yerda: $P(y=1/X)$ – fermer tahdidni boshqara olish ehtimoli; β_0 – erkin had; $\beta_1, \dots, \beta_k$ – regressiya koeffitsiyentlari; $X_1, \dots, X_k$ – mustaqil o‘zgaruvchilar (masalan: savodxonlik ballari, tajriba, ta’lim darajasi, kreditga kirish va maslahat xizmatlaridan foydalanish).

Modeldan foydalanishda quyidagi asosiy afzalliklar mavjud: (1) logarifmik ehtimollar orqali qaror qabul qilishni modellashtirish; (2) ko‘rsatkichlarning ehtimolga ta’sirini ko‘rsatadigan marginal effektlar hisoblash; (3) natijalarni oddiy talqinga moslab, siyosiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Modelga kiritilgan

o'zgaruvchilarning statistik ahamiyatligi Wald testi yordamida, umumiy model ishonchliligi esa Maxsus ehtimollik funksiyasi (Likelihood Ratio) asosida baholandi.

Tolles va Meurer (Tolles & Meurer, 2016) qayd etganidek, logistik regressiyaning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, bu model chiziqli regressiyadan farqli ravishda kiritilgan o'zgaruvchilar bilan natijaviy o'zgaruvchi o'rtasida chiziqli bog'liqlikni talab qilmaydi. Bu esa murakkab va real hayotdagi qaror modellarini ishlab chiqishda logistik regressiyaning ayniqsa foydali qiladi.

Shuningdek, logistik regressiya orqali chiqarilgan marginal effektlar, koeffitsiyentlar log-odds shaklida, va ehtimollik bashorati orqali tahlil natijalarini aniqroq talqin qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sharoitida fermer xo'jaliklarining moliyaviy tahdidlarni boshqarish qobiliyatiga moliyaviy savodxonlik darajasi va boshqa omillarning ta'sirini empirik baholash maqsadida Binary Logistic Regression modeli qo'llanildi. Modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida fermerlarning moliyaviy tahdidni boshqara olish qobiliyati (1 = boshqara oladi, 0 = boshqara olmaydi) tanlandi. Mustaqil o'zgaruvchilar tarkibiga moliyaviy savodxonlik darajasi, fermerlik tajribasi (yillarda), ta'lim darajasi (0 = o'rta, 1 = oliy), kredit olish imkoniyati (ha/yo'q) hamda maslahat xizmatlaridan foydalanish kabilar kiritildi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston sharoitida fermerlarning moliyaviy tahdidlarni boshqarish ehtimoliga logistik regressiya baholari¹

¹ Kuzatuvlar asosida muallif ishlanmasi

Logistik regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik fermerlar tomonidan moliyaviy tahdidlarni boshqarish ehtimoliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu o'zgaruvchining regressiya koeffitsiyenti 0,578 bo'lib, p-qiymati 0,003 darajasida statistik jihatdan ishonchli deb topildi ($\alpha = 0,05$). Bu degani, moliyaviy savodxonlik darajasining har bir birlikka oshishi fermerning tahdidni boshqara olish ehtimolini taxminan 57,8 % orttiradi. Bu holat O'zbekiston sharoitida moliyaviy bilimlarning bevosita iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Boshqa omillardan fermerlik tajribasi ham ijobiy koeffitsiyent (0,028) ko'rsatdi, biroq p-qiymati 0,33 bo'lgani uchun statistik ahamiyatga ega emas. Bu tajribaning tahdidga qarshi kurashda faqat mustaqil emas, balki boshqa omillar bilan kombinatsiyada ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Ta'lim darajasi uchun koeffitsiyent 0,860 bo'lib, u ham ijobiy, ya'ni oliy ma'lumotli fermerlar tahdidga nisbatan tayyorroq. Bu o'zgaruvchining p-qiymati 0,099 bo'lib, statistik jihatdan chegaraviy ahamiyatga ega ($\alpha = 0,10$ darajasida muhim deb baholanishi mumkin).

Kredit olish imkoniyati va maslahat xizmatlaridan foydalanish o'zgaruvchilari ham ijobiy koeffitsiyentga ega bo'lib (mos ravishda 0,743 va 0,476), ular ham ehtimolni oshirish yo'nalishida harakat qilsa-da, p-qiymatlari 0,13 dan yuqori bo'lgani uchun ishonchli deb qaralmaydi. Bu natijalar mavjud infratuzilmaviy muammolar yoki resurslardan foydalanishdagi samarasizlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Modelning umumiy mosligi maxsus ehtimollik funksiyasi qiymati (log-likelihood = 0,215) orqali baholandi. Bu qiymat past bo'lishi modelning yomonligi emas, balki ehtimollar asosida ishlayotgan logistik regressiyada odatiy hol sanaladi. Ayniqsa, fermer sifatli omillarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar uchun log ehtimollik qiymatining barqarorligi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektori o'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan o'zgarishlar, moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiyasi va institutsional islohotlar jarayonida faol ishtirok etmoqda. Tadqiqotda logistik regressiya usuli orqali fermer xo'jaliklarining moliyaviy tahdidlarni boshqarish qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar empirik jihatdan baholandi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlikning ijobiy va statistik ahamiyatli ta'siri aniqlanishi bu masalaning davlat siyosati va amaliy dasturlar doirasida dolzarb masala ekanini ko'rsatadi. Fermerlarning moliyaviy savodxonlik darajasi oshgani sayin, ularning kredit resurslaridan oqilona foydalanish, moliyaviy risklarni anglash va investitsion qarorlarni puxta qabul qilish ehtimoli ortadi. Bu esa nafaqat individual xo'jalik darajasida, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotga ega fermerlar tahdidlarni boshqarishda nisbatan samaraliroq faoliyat yuritadi, biroq bu faqat ta'lim bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham mustahkamlanishi kerak. Kreditga kirish va maslahat xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari esa hali to'liq natija bermayotgani ushbu sohalarida institutsional va infratuzilmaviy islohotlarni yanada jadallashtirish zaruriyatini anglatadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasi zamonaviy qishloq xo'jaligi tizimida nafaqat bilim berish bilan, balki uzluksiz ta'lim, mahalliy maslahat tarmoqlari, AKT texnologiyalar asosidagi raqamli platformalarni keng joriy qilish orqali amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, yosh fermerlar va ayollar ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan maxsus dasturlar, kredit-garov tizimlarini soddalashtirish va agrar sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish orqali moliyaviy tahdidlarga bardoshli agrobiznes muhitini shakllantiradi.

Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlik indikatorlari asosida maxsus diagnostik vositalar (savolnomalar, indekslar) ishlab chiqilib, joylardagi ehtiyojlarga mos strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Fermerlarning o'z-o'zini moliyaviy baholash qobiliyatini oshiruvchi interaktiv vositalar, mobil ilovalar va raqamli maslahat platformalari — bugungi raqamli transformatsiya davrida eng samarali vositalardan biridir.

Taklif sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, fermerlar uchun maxsus tayyorlangan moliyaviy savodxonlik dasturlari ishlab chiqilishi va bu dasturlar doimiy asosda takomillashtirib borilishi lozim. Agrosug'urta xizmatlari va risk boshqaruvi bo'yicha raqamli platformalar yaratilib, masofaviy ta'lim va maslahatlar orqali fermerlar moliyaviy qaror qabul qilishga tayyorlanishi kerak. Ayollar va yosh fermerlar uchun imtiyozli kredit va moliyaviy ko'mak dasturlari ishlab chiqilishi, ularning moliyaviy inklyuziyasini oshirish zarur. Mahalliy agrobanklar, mikrofinans institutlari va maslahat markazlari o'rtasida integratsiyalashgan tizim yaratilishi lozim, bu orqali maslahatlar va moliyaviy xizmatlar hamkorlikda taklif etilishi ta'minlanadi. Har bir tumanda moliyaviy savodxonlik darajasini baholovchi indikator tizimi va reytinglar joriy qilinishi hamda bu baholashlar asosida siyosiy qarorlar ishlab chiqilishi kerak.

Ushbu xulosa va takliflar O'zbekistonning qishloq xo'jaligida moliyaviy savodxonlik orqali tahdidlarni boshqarish bo'yicha kompleks yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu asosda agrar barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy inklyuziya va investitsion faollikni rag'batlantirish strategik ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni
<https://lex.uz/docs/-4567334>

2. O'Donoghue, A. (2016). Pluriactivity and the economic viability of *EU* family farms: A financial resilience analysis. *Agricultural Economics*, 47(1), 113–124.
<https://doi.org/10.1111/agec.12215>

3. Spicka, J., Machek, O., & Hlavsa, T. (2019). Measuring farm financial sustainability: Development of the Farm *Net* Value Added indicator. *Agricultural Economics* (Zemědělská Ekonomika), 65(2), 51–60.
<https://doi.org/10.17221/275/2018-AGRICECON>

4. Petrick, M., & Kloss, M. (2020). Investment behaviour *in* agriculture: A theoretical and empirical assessment. *Agricultural Systems*, 180, 102760. <https://doi.org/10.1016/j.agsy.2020.102760>
5. Dockès, A. C., Girard, N., Hazard, L., & Mundler, P. (2024). Towards adaptable agricultural systems: A complex systems perspective. *Agricultural Systems*, 215, 103620. <https://doi.org/10.1016/j.agsy.2024.103620>
6. Ahmad, S., Iqbal, M. A., & Ullah, A. (2024). Climate-smart agricultural practices and their *link to* farmer resilience. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 8, 1474903. <https://doi.org/10.3389/fsufs.2024.1474903>
7. Akinrinlola, T. F., et al. (2024). Smallholder farmers' resilience and financial literacy under climate uncertainty. *Scientific Reports*, 14, 84004. <https://doi.org/10.1038/s41598-024-84004-z>
8. Bravo-Medina, C., et al. (2021). Agroecological transition and economic sustainability of smallholder farmers. *Sustainability*, 13(7441), 1–15. <https://doi.org/10.3390/su13137441>
9. Rehman, A., Jingdong, L., Chandio, A. A., & Hussain, I. (2022). Determinants of financial literacy among rural farmers *in* hilly regions of Pakistan. *Sustainability*, 14(7466), 1–19. <https://doi.org/10.3390/su14097466>
10. Tafesse, B., & Mequanint, F. (2020). Technical efficiency of smallholder farmers and its determinants. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 4, 34. <https://doi.org/10.3389/fsufs.2020.00034>
11. Pulatova, G., & Abdulatipova, G. (2024). *Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri*. *Iqtisodiy tadqiqotlar va innovatsiyalar*, 6(2), 34–45.
12. Tolles, J., & Meurer, W. (2016). Logistic Regression: Understanding Odds and Odds Ratios. *JAMA*, 316(5), 533–534. <https://doi.org/10.1001/jama.2016.8904>
13. <https://lex.uz>
14. <https://stat.uz/uz/>
15. <https://nextdoor.com>
16. <https://www.neighbourly.co.nz>
17. <https://www.simplylocal.app>
18. <https://www.smartnation.gov.sg/initiatives/urban-living/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**